

**SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDINING HAYOTI VA FAOLIYATINI  
O'RGANISHDA SHIHOBIDDIN MUHAMMAD AN-NASAVIYNING  
“SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI HAYOTINING TAFSILOTI”  
ASARINING TARIXIY AHAMIYATI**

*Xoziyeva Zulahyo*

*Andijon viloyati Oltinko'l tumani  
70-IDUMning Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** xorazmshohlar sultanatining so'nggi hukmdori Sulton Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyatini o'rganishda Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din Mengburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotining tafsiloti”) asarining tarixiy ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazmshohlar, tarjimai xol, sulola, mo'g'ullar, Anushteginlar, muarrixlar.

Xorazmshohlar sultanatining tarixi – O'zbekiston tarixining mustahkam bir ustunidir. Mening nazdimda shunday. Xorazmdoa hukmronlik qilgan Anushteginlar sulolasi davri tarixi nafaqat O'zbekistonda balki, O'rta Osiyo xalqalari davlatchiligi va madaniyati tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu maqolamizda Xorazmshohlar zaminida hukmronlik qilib o'tgan ajdodlarimiz jumladan, xalqimizning ardoqli qahramoni, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan, mard, jasur, diovyurak o'g'loni Sulton Jaloliddin Manguberdi haqida gap ketadi.

Anushteginlar sulolasi davrida davlat hokimiysi markazlashgan va takomillashgan boshqaruv tizimiga ega bo'lgan bo'lib, buning natijasida davlatning siyosiy mavqeiorildi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, shaharlar yuksaldi. Poytaxt Gurganch esa yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylandi. Xorazmshohlar sultanati faqat Xorazmning o'zidagina hukmronlik qilmadi. Bu sultanat o'z doirasiga Movoraunnahr, Xuroson, Iroq, Arron, Mozondaron, Ozarbayjon, Gruziya, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston tegralarini ham birlashtirib olgandi. Mo'g'ullar bosqini natijasida gullagan vodiylar vayronaga, go'zal imorat-u inshootlar harobaga aylandi. Ajoyib madaniyat durdonalarimiz, badiiy va tarixiy asarlarimiz yo'q qilinib yuboriladi. Shuning uchunmi Sulton Jaloliddin va uning ajdodlari haqida yurtimiz tarixida ilmiy-tadqiqot asarlar nihoyatda kam bo'lsa, Yevropa, arab, turk muarrixlari ular to'g'risida bir necha o'nlab ilmiy-tadqiqot asarlari yaratilgan. Sulton Jaloliddin hayoti va faoliyati haqida XIII-asrdan to hozirgi kungacha yaratilgan asarlarni sanaydig'an bo'lsak 1000jildga yaqin kitobni tashkil qiladi. Bu

asarlarni shartli ravishda ikki davrga :birinchi davri XIII-XVIII asrlarda yozilgan asarlar kirsa, ikkinchi davri XVIII-XX asrlarda yaratilgan asarlar kiradi .

Birinchi davrda yaratilgan asarlarning aksariyati Sharq tarixchilarining qalamiga mansub yodnomalar, yilnomalar, tarixiy hujjatlar va har xil bitiklardan iborat. Jaloliddin Manguberdi tarixining o'rganishning ikkinchi davri XVIII-XX asrlarni qamrab oladi. Bu davrda yaratilgan asarlar asosan, Jaloliddinning hayoti , faoliyati haqida XIII-XVIII asrlar oralig'ida yozilgan tarixiy asarlarni , bitiklarni , yodnomalarni ilmiy tadqiq qilingan asarlardir.

Ana shular orasida ishonchli asosiy tarixiy manbalardan biri Shihobiddin an-Nasaviyning "Sulton Jalolidin Manguberdi hayotining tafsiloti" asaridir . Shihobiddin an-Nasaviy Xurosonning Nasa shahri yaqinida tug'ilgan. Shu viloyatdagi Xurandiz qal'sining voliysi bo'lgan . U turkey, forsiy, arabiylarini mukammal bilgan. Nasa shahri va viloyati Xorazmshohlar qo'l ostidagi mulkidan biri bo'lgan. Asarni an-Nasaviy 1241-yilda Jaloliddin o'limidan 10yil keyin yozishga kirishgan va 1249-yil vafotidan sal oldin tugatadi. Asarga 1218-yildan 1231-yilgacha Xorazm, Movovrounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron, Iroq, Ozarbayjon, Gruziya kabi davlatlarda , aniqrog'I Jaloliddin qo'l ostida to'plangan sultanatda bo'lib o'tgan voqealar, Xorazmshoh Alouddin va Jaloliddin Manguberdi faoliyatları, Chingiz bosqini dahshatlari haqqoniy tarzda hikoya qilinadi. Asarning qimmatli tomoni shundaki , agar o'sha davrda xorazmshohlar va mo'g'ullar o'rtasidagi kurash voqealar ko'pchilik tarixchilar mo'g'ullar tomonidan turib yoritilgan bo'lsalar bu asarda tarixga xorazmshohlar tomonidan turib nigoh tashladi. Aniqroq qilib aytganda o'sha davrning boshqa tarixchilari ko'ra olmagan teran haqiqatni an-Nasaviy yaxshi bilgan va sarda ko'rsatib bera olgan.

Sizlarga tavsiya etayotgan Shihobiddin an-Nasaviyning "Sulton Jalolidin Manguberdi hayoti va tafsiloti " asari Ozarbayjonlik sharqshunos olim Ziyo bunyodov tominidan rus tiliga tarjima qilinadi. Kamol Muhammad Yoqub tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinadi.

Asar tarix fani o'qituvchilari , tarixga qiziquvchilar uchun juda muhim qo'llanma vazifasini bajaradi . Asarda o'sha davr voqealar va hodisalar haqqoniy yoritib berilgan. Ularga tahliliy baho berilgan . Asarni o'qiganingizda tariximizning noma'lum sahifalari ko'z oldingizda oydinlashadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy "Sulton Jalolidin Manguberdi hayoti tafsiloti" Toshkent 2009
2. Z.Bunyodov "Anushtagin Xorazmshohlar davlati" Toshkent 1998
3. A.muhammadjonov O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi Toshkent 2017
4. Ya.G'ulomov "Xorazmning sug'orish tarixi" Toshkent 1959
5. Uz.m.wikipedia.org